



KO'MAKCHILASHISH VA TURKUMLARARO KO'CHISH HODISASI: O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TALQIN VA TAHLILI

Suyarova Dilrabo Valijon qizi

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: suyarovadilrabo6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17646632>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 19-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

Ko'makchilashish,
turkumlararo ko'chish,
grammatiklashtirish,
grammatik vosita, mustaqil so'z
turkumlari, semantika,
sintaksis, o'zbek tili, grammatik
dinamikasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek tilida ko'makchilashish jarayoni hamda turkumlararo ko'chish hodisasining mohiyati, ularning til taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Grammatiklashtirishning mazkur ikki ko'rinishi so'zlarning semantik va sintaktik funksiyasidagi o'zgarishlar orqali yuzaga kelishi ko'rsatib berilgan. Ko'makchilashishning tarixiy ildizlari, turkumlararo ko'chishning shakllari hamda ularning grammatik sistemaga ta'siri misollar asosida izohlangan. Tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi dinamik lingvistik jarayonlarni yangi ilmiy nuqtai nazardan yoritishga xizmat qiladi.

Tilning so'z boyligi va grammatik qurilishi statik tizim emas, balki doimo harakatda, o'zgarishda bo'lgan hodisadir. O'zbek tilida ham so'zlarning ma'nosi, vazifasi, sintaktik imkoniyatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Ana shu jarayonlarning eng muhimlaridan ikkitasi — ko'makchilashish va turkumlararo ko'chish hodisalaridir. Ko'makchilashish — mustaqil so'zlarning leksik ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ifodalovchi vositaga, ya'ni ko'makchiga aylanish jarayonidir. Turkumlararo ko'chish esa mustaqil so'zlarning semantik kengayishga uchrab, boshqa so'z turkumi vazifasida qo'llanila boshlashi bilan xarakterlanadi. Har ikki jarayon tilning tabiiy rivoji natijasida yuzaga keladi va tilning grammatik tizimini boyituvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Ko'makchilashish hodisasi so'z turkumlari aro konversiya negizida sodir bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Konversiyaning bir qancha turlari mavjud bo'lib, jahon tilshunosligida "transpozitsiya", "konversiya", "substitutsiya", "transformatsiya" terminlari ko'chish jarayonini ifodalaydi. Lingvistik terminlar lug'atlarida transpozitsiya bir

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tilshunoslikda so'z turkumlari aro ko'chish muammosi muhimligi L.Shcherba[Щерба Л.В. Некоторые выводы из моих диалектологических лужицких наблюдений (рус.) // Приложение к книге «Восточнолужицкое наречие». — 1915.] tomonidan qo'yilgan, D.Rozental va M.Telenkova[Розенталь Д. Э., Теленкова М. А. Справочник по русскому языку. Словарь лингвистических терминов. М.: Оникс, 2003.С.69.]lar tomonidan yaratilgan lingvistik lug'atda "ko'chgan" so'zni tahlil qilish tamoyillari keltirilgan. V.Migirin tomonidan ko'chish

hodisasining muhim muammolari keltirib o'tiladi. Til o'zining rivojlanish jarayonida ba'zi o'zgarishlarga duch keladi, bu o'zgarishlar lug'aviy tarkibda hamda grammatik tuzilmalarda aks etadi. Natijada, bir so'z turkumi o'z o'rnini boshqasiga beradi va yangi turkumga xos vazifalarni bajarishga moslashadi. Shu hodisa fikr ifodalashda qulaylik tug'diradi, til birligining funksional-semantik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa hamda ko'chish turlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan J.Eltazarov, V.D.Arakin va H.G'Ne'matov kabi olimlarning kuzatishlaridan bilishimiz mumkinki, mustaqil so'zning qo'shimcha morfemaga aylanishining tafakkur bilan bog'liq tomonlari tahlil etilgan va bu jarayonning uch bosqichi ajratib ko'rsatilgan:

I bosqich. Bu bosqichda morfemaning leksik ma'nosi bilan birga grammatik ma'nosi ham rivojlana boradi va u leksik birlik sifatida amalda bo'ladi;

II bosqich. Mazkur bosqichda so'zning grammatik ma'nosining taraqqiyoti intensivroq kechadi va natijada biri leksik ma'no tashuvchi, ikkinchisi grammatik ma'no tashuvchi omonimlar vujudga keladi, grammatik omonimning tovush tuzilishida o'zgarishlar yuz beradi;

III bosqich. Bu bosqich oxirigisi bo'lib, unda grammatik omonim leksik omonimdan ma'no va tovush tuzilish jihatdan tubdan farqlana boshlaydi va tipik grammatik birlikka aylanadi. [Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, Б.42]

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadqiqotlarda so'z turkumlari orasidagi o'zaro ko'chish muammosi to'g'risida fikr yuritilganda transpozitsiya va unga yaqin bo'lgan konversiya hodisasi nazarda tutiladi. Zamonaviy tilshunoslikda ko'chish hodisasi tavsifida tarixiylik va zamonaviy transformatsiyada diaxron holat, kontaminatsiya / konversiyada esa tadqiq qilinayotgan lisoniy hodisa tavsifida sinxron holat e'tiborga olinadi. Lingvistik terminlar lug'atlarida transpozitsiya (lotincha transpositio – o'zgartirish, almashtirish) so'zning bir so'z turkumidan boshqasiga ko'chishi yoki bir lisoniy shaklning boshqa vazifada qo'llanilishi [Лингвистический энциклопедический словарь. С.519.] degan ma'noni anglatadi. Azim Hojiyev tomonidan **Transposition – almashtirish**, – deb ta'rif berilgan. **Grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llanishi. Masalan, bir turkum so'zining matnda boshqa turkum so'zi kabi qo'llanishi deya izohlangan** [ham mavjud bo'lib, bu masala faqatgina so'z turkumlari doirasida o'rganilib qolmasdan, balki o'z maxsus bo'limlarida tadqiq etiladi. Tilshunoslikda so'z yasalishi deb ataluvchi bo'lim mavjud bo'lib, bu bo'lim bevosita tilimizdagi yasaliş qonuniyatlarini tadqiq etadi. Ushbu tadqiqot doirasiga o'zbek tilidagi so'z yasovchi vositalarning turlari, turli so'z turkumlarining yasaliş xususiyatlari, tilimizda mavjud bo'lgan yasovchi vositalarning birlashish jarayonlari, o'zbek tili morfologik tizimida so'z yasovchi va grammatik kategoriyalarning chegaralanishi, so'z yasalişida fonetik omillarning ahamiyati, so'z yasovchi vositalarning nutqning turli shakllarida qanday ishlatilishi va uslubiy farqlanishi kabi masalalarni o'rganish mumkin. O'zbek tilida so'z yasaliş bo'yicha kuzatishlar olib borgan A. Tursunovning fikriga ko'ra, agar affiksatsiya va

kompozitsiya orqali yaratilgan ma'nolar hozirgi (sinxron) ma'no tipiga mansub bo'lsa, ma'nolar esa tarixiy (diaxron) ma'nolar sifatida yuzaga keladi, chunki keyingi tip ma'nolar tarixan uzoq davrlarning mahsulidir. Demak, so'z yasaliş ma'nosi barcha usul va vositalarda ko'rinadigan ma'no tiplarini qamrab olishi zarur [Турсунов А. Ўзбек тилида ясама сўз талқини. –Б.18].

Natija va muhokamalar . Tilshunoslikda E.Kubryakova, V.Gak, P.Sobolev, O.Espersen, V.Arakin, L.Tener kabi olimlar, o'zbek tilshunoslaridan H.Ne'matov, J.Eltazarov, S.T.Rustamov, A.Pardayev, Z.Isoqov, G.Karimova, F.Jumayeva [<https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=4521>] kabilar asarlarida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ta'siri masalasi yoritib berilgan. . Shunisi xarakterliki, bugungi kunda tadqiqotlarda ancha faol qo'llanilayotgan transpozitsiya termini zamonaviy tilshunoslikda bir xil talqinga ega emas va transpozitsiyaning turlari masalasida tilshunoslar haliga qadar yakdil fikrga kelingan emas. Y.D.Apresyaning ko'rsatishicha, muayyan bir turkumga mansub so'zning lug'aviy ma'nosini saqlagan holda, ikkinchi turkumga xos vazifasida kelishiga oid dastlabki izlanishlar O.Espersen, L.Tenerlar tomonidan olib borilgan. Bu hodisa "sintaktik transpozitsiya" deb yuritigan [Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимическая средства языка. -М.: 1974. -С.316. (Apresyan U.D. lexical semantics. Synonymous language means. – М.: 1974.)].

Ushbu hodisaniing tavsifi mashhur fransuz tilshunosi Sh.Balli tomonidan ishlab chiqilgan. Olim transpozitsiyaning semantik va funksional tiplarini farqlagan. Uning fikriga ko'ra, faol lisoniy birliklar o'z semantik xususiyatini saqlagan holda boshqa bir grammatik vazifaga o'tishi – bu funksional transpozitsiya deb ataladi. Agar so'z turkumi birlamchi vazifasini o'zgartirgan holda yangi lug'aviy ma'no hosil qilsa, bunday jarayon semantik transpozitsiya deb nomlanadi. Transformatsiya turlari barcha mustaqil va yordamchi turkumlar doirasida uchraydi. Sifat so'z turkumida *adektivatsiya*; ravish so'z turkumida *adverbializatsiya*; olmosh so'z turkumida *pronominalizatsiya* terminlari bilan izohlanadi. Har bir tur o'ziga xos qonuniyatlar asosida shakllanadi. Bu qonuniyatlar turga xos xususiyatlarni belgilab beradi va uning rivojlanish jarayonini, o'zgarishini nazorat qiladi. Turkumlararo ko'chish sodir bo'lishida tabiatda yoki ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan muhit va sharoitlar katta rol o'ynaydi. Masalan, leksema denotat ma'nosining yo'qolishi sababli semada siljish sodir bo'ladi. Umuman qaraganda, transpozitsiyaning morfolik transpozitsiya turi o'z tarkibiga affiksatsiyani kiritib yuboradi, lekin bu aynan yasaliş degani emas. Shu jihatdan olib qaralsa, derivatsiya va so'z turkumlarining lug'aviy tarkibi kengayishida transpozitsiyaning ahamiyati katta. Farqli jihatlari ko'chish hodisasi asosidagi yasaliş morfologik transpozitsiya. Tilda mavjud bo'lgan ko'makchi birliklar, bog'lovchi so'zlar, yuklamalar, bog'lama, modal so'zlar va undov so'zlar, ularning ayrim qismlari (etimologiyasi aniq bo'lmagan birliklar ham mavjud bo'lib) faqat transpozitsiya jarayoni orqali shakllanadi. Buni yordamchi turkumlar o'z yasaliş imkoniyatiga ega emasligi bilan izohlash mumkin. Qolaversa, tilimizda haligacha yordamchi so'zlarning miqdori va funksional imkoniyatlari to'g'risida olimlarning yakdil qarorga kelmaganligi bu borada muayyan muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy, albatta. "Darhaqiqat, nima uchun tilimizda mavjud yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar)ning aniq statistikasi (miqdori) va sirasini keltirish qiyin", - deb yozadi professorlar S.Karimov va A.Pardayevlar. – Bunga nima xalaqit beradi? singari savollarga javob topish uchun dastlab til sathidagi quyidagi holatga

e'tibor qaratish zarur: yordamchi so'zlarning har uchala turida ham yadro-pereferiya (markaz - qurshov) munosabati mavjuddir.

Xulosa. O'zbek tilida ko'makchilashish va turkumlararo ko'chish tilning rivojlanishida muhim o'rin tutadigan grammatiklashtirish jarayonlaridan hisoblanadi. Ko'makchilashish so'zlarning grammatik ma'no ifodalashdagi o'rnini mustahkamlaydi, turkumlararo ko'chish esa tilning semantik va sintaktik imkoniyatlarini kengaytiradi. Har ikki hodisa tilning tabiiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, o'zbek tilining zamonaviy grammatik tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda ko'chish hodisasiga bag'ishlangan ishlarda, asosan, otlashish hodisasi keng yoritilgan va darslik va qo'llanmalarda mustaqil so'z turkumlarida ham yuz berishi yo'l-yo'lakay aytib o'tilgan. Ammo shu vaqtga qadar yordamchi so'z turkumlarida ko'chish hodisasining sodir bo'lishi tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botirova A. So'z turkumlarining birlamchi va ikkilamchi funksional-sintaktik tahlili. – Navoiy, 2021. – 123 b.
2. Замонавий ўзбек тили. Морфология. 1-жилд. Ўқув қўлланма (муаллифлар жамоаси). – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – 468 б.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.
4. Пардаев А. Ўзбек тилида кўмакчилар стилистикаси. – Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2008. – 158 б.
5. Пардаев А.Б. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – 175
6. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2006. – 169 б
7. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимическая средства языка. -М.: 1974. -С.316. (Apresyan U.D. lexical semantics. Synonymous language means. -M.: 1974.)
8. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. М.: Прогресс, 1988.
9. Турсунов А. Ўзбек тилида ясама сўз талқини. -Бухоро: 2021
10. <https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=4521>